

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI DSc.08/2025.27.12.I.07.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

ISRAILOVA XIKOYAT MUSAKULOVNA

**MINTAQADA MEVA-SABZAVOTCHILIKNI
RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI
(FARG‘ONA VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026 y.

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD) po ekonomicheskim naukam

Israilova Hikoyat Musakulovna	
Mintaqada meva-sabzavotchilikni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari (Fargʻona viloyati misolida).	3
Israilova Xikoyat Musakulovna	
Priority directions for the development of fruit and vegetable production in the region (in case of Fergana region)	26
Исраилова Хикоят Мусакуловна	
Приоритетные направления развития плодooвощеводства в регионе (на примере Ферганской области).....	49
Eʻlon qilingan ishlar roʻyxati	
List of published works	
Список опубликованных работ.....	60

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI DSc.08/2025.27.12.I.07.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

ISRAILOVA XIKOYAT MUSAKULOVNA

**MINTAQADA MEVA-SABZAVOTCHILIKNI
RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI
(FARG‘ONA VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026 y.

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4342 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Egamberdiyev Komron Farmonqul o'g'li,
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Umarov Suxrob Rustamovich,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sultanov Baxodir Fayzullaevich,
iqtisodiyot fanlari doktori, katta i.x.

YEtakchi tashkilot:

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.I.07.02 raqamli Ilmiy kengash 2026-yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 141001, Samarqand viloyati Oqdaryo tumani, Dahbet qo'rg'oni, A.Temur ko'chasi 7-uy. Tel: (998 66) 492-81-16; e-mail: info@samaguni.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand qishloq xo'jaligi innovatsiyalari va tadqiqotlari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo'rg'oni, A. Temur ko'chasi, 7-uy. Tel.: (998 66) 492-81-16; e-mail: info@samaguni.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi
(2026-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

SH.T.Hasanov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

SH.B.Babaxolov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
PhD., dotsent

O.Murtazaev,

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, ayniqsa, meva-sabzavotchilik tarmog'i aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va qayta ishlash sanoatini xom ashyo bilan ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, "... so'nggi 20 yilda jahonda meva-sabzavot mahsulotlariga bo'lgan talab yillik o'rtacha 5–7 foizga oshib bormoqda"¹. Biroq global iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar va geosiyosiy inqirozlar tarmoqning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. SHu munosabat bilan rivojlangan davlatlarda innovatsion texnologiyalar, suvni tejoyvchi tizimlar, klasterlashtirish va davlat tomonidan bozor mexanizmlarini tartibga solish choralari keng joriy etilmoqda. Natijada meva-sabzavotchilik tarmog'i nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlovchi, balki milliy iqtisodiyot barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlovchi ustuvor sohalardan biriga aylanmoqda.

Jahondagi yirik ilmiy markazlar va tadqiqot muassasalari tomonidan aholini meva-sabzavot mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash masalalari bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, ko'plab mamlakatlarning agrar sohani rivojlantirish strategiyalarida meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmoqlarini jadal rivojlantirishga qaratilgan yangi mexanizm va yondashuvlarni joriy etish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiyalash, innovatsion hamda resurstejamkor texnologiyalardan samarali foydalanishga doir ilmiy izlanishlarga alohida ustuvor ahamiyat berilmoqda. SHu bilan birga, ekologik jihatdan xavfsiz, turli iqlim sharoitlariga moslashuvchan va yuqori hosildor navlarni yaratish bo'yicha seleksiya hamda urug'chilik ishlarini takomillashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash va qayta ishlash tizimini rivojlantirish, tarmoqni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash hamda eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda meva-sabzavotchilik tarmog'ini barqaror rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilib, natijada tarmoqning ishlab chiqarish salohiyati hamda eksport imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Biroq mazkur sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, meva-sabzavotchilik va uzumchilikni rivojlantirishda samarali bozor mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi, ilmiy yondashuvlardan to'liq foydalanilmayotganligi tarmoq imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, "... 1 gektar maydondan olinadigan daromad hajmi paxta xom ashyosiga nisbatan uzumda 7 baravar, gilosda 6 baravar va yong'oqda 5 baravar yuqori hisoblanadi"². SHu munosabat bilan "agrobiznes muhitini yanada

¹https://www.undp.org/content/dam/uzbekistan/docs/Publications/economicgovernance/Improving_Productive_and_Export_Potential/un_uzb_Improving_Productive_%20and_Export%20Potential.pdf

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги ПФ–5853-сонли “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020–2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони. https://lex.uz/docs/4567334?utm_source=chatgpt.com

takomillashtirish, qo‘shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish, sohada davlat ishtirokini qisqartirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish hamda qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatiga xalqaro standartlarni joriy etish”³ga qaratilgan vazifalarga alohida ustuvor ahamiyat berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 fevraldagi PF-5009-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021 yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024 yil 16 fevraldagi PF-36-son “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019 yil 14-martdagi PQ-4239 son “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021 yil 15-dekabrda PQ 52-son “Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023 yil 23-noyabr PQ-20-son “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qishloq xo‘jaligi, jumladan, meva-sabzavotchilik sohasida ekinlarni joylashtirish, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish, eksport raqobatbardoshligi va hududiy ixtisoslashuvni baholash masalalari xorijiy olimlar S.A.Kondratenko, E.E.Matveeva, W.Kupsik, K.Pawlak, M.Svatošová, S.Brakman, A. De Benedictis⁴ va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida atroflicha o‘rganilgan. Ularning tadqiqotlarida meva-sabzavot mahsulotlari tashqi savdosi, agrar bozor

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/4567334?utm_source=chatgpt.com

⁴ Кондратенко С.А. Устойчивое развитие регионального агропродовольственного комплекса: теория, методология, практика / С.А.Кондратенко. – Минск:, 2019. – 286 с.; Е.Е.Матвеева. Система показателей, характеризующих специализацию сельскохозяйственного производства. Экономика управление. 2012. №2, 4-7 стр.; Kupsik W., Pawlak K. Competitive Position of EU Candidate Countries and Eastern Partnership Countries in Trading Fruit and Vegetables in the Single European Market // Agriculture. – 2024. – Vol. 14. – No. 11. – Article 1997. DOI:10.3390/agriculture14111997; Svatošová M., Boháčková I., Hrabánková M. Regional Agricultural Specialization and Competitiveness under Sustainable Development Conditions // Sustainability. – 2022. – Vol. 14. – No. 9. – Article 5241. DOI:10.3390/su14095241; Brakman S., Garretsen H., van Marrewijk C. Regional Specialization and Concentration in Agricultural Trade: Measurement and Policy Implications // Journal of Regional Science. – 2021. – Vol. 61. – No. 5. – P. 987–1008. [Wiley Online Library](#); De Benedictis L., Tamberi M., Vicarelli C. Specialization Patterns in Agricultural Production and Export Performance: New Empirical Evidence // Applied Economic Perspectives and Policy. – 2023. – Vol. 45. – No. 2. – P. 756–774. [Oxford Academic Journal](#).

infratuzilmasi, eksport samaradorligi, hududiy ixtisoslashuv hamda agrar ishlab chiqarishni baholash metodologiyasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda ham meva-sabzavotchilik tarmog'ining milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyati va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi muhim o'rni tufayli keyingi yillarda mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ko'lami kengayib bormoqda. Xususan, S.T.Iskandarov, SH.M.Murodov, S.K.Eshmatov, M.U.Achilov, X.A.Pardaev⁵ kabi iqtisodchi olimlar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tarmoqni modernizatsiya qilish, qo'shilgan qiymat zanjirida integratsiya jarayonlarini rivojlantirish, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash va sotish tizimini takomillashtirish, shuningdek, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

SHu bilan birga, mamlakatimizda meva-sabzavotchilik tarmog'ini hududlar kesimida rivojlantirish, hududiy ixtisoslashuv darajasini baholash, agroiqlim salohiyati va bozor kon'yunkturasini hisobga olgan holda tarmoqni barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada amalga oshirilmagan. Bu esa meva-sabzavotchilik tarmog'ida qo'shilgan qiymat zanjirini chuqurlashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish hamda tarmoq raqobatbardoshligi va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq, F-OT-F1-101 "Globallashuv sharoitida mintaqalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligi o'sishiga metodologik yondashuvlar" mavzusidagi ilmiy-amaliy granti (2017-2021 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

agrar ishlab chiqarishning ilmiy-nazariy asoslarini tizimli tahlil qilish, meva-sabzavotchilik tarmog'ining iqtisodiy tabiati va uning milliy xo'jalikdagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslash;

meva-sabzavotchilik tarmog'ida ixtisoslashtirish darajasini baholash bo'yicha mavjud uslubiy yondashuvlar tahlillari asosida ushbu uslubiy yondashuvni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

⁵ S.T.Iskandarov. Глобал иқлим ўзгариши шaroitida sabzavotchilikni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish: diss. ... avt. i.f.d. 2024 й.; SH.M.Murodov Meva-sabzavot mahsulotlarini sotish sohasida kooperatsiya munosabatlarini shakllantirish: diss. ... avt. i.f.n. – T., 2020.; S.K.Eshmatov Meva-sabzavotchilik tarmofiga qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish yo'nalishlari: diss. ... avt. i.f.n. – T., 2021.; M.U.Achilov. Meva-sabzavotchilik tarmofigini modernizatsiyalashning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish: diss. ... avt. i.f.n. – T., 2022.; X.A.Pardayev. Pomidor ishlab chiqarish zanjiri subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida): diss. ... avt. i.f.n. – T., 2023.

zamonaviy meva-sabzavot bozorining strategik vazifalari va innovatsion rivojlanish omillari tahlillari asosida jahon meva-sabzavot bozoridagi asosiy tendensiyalarni aniqlash asosida umumiy xulosalar ishlab chiqish;

O'zbekistonda meva-sabzavotchilik tarmog'ining rivojlanish tendensiya-lari, xususan hududlar kesimida ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport ko'rsatkichlarining dinamikasi tahlillari asosida mavjud muammolarni aniqlash;

Farg'ona viloyati misolida meva-sabzavotchilik tarmog'ining rivojlanish xususiyatlari va muammolarini tahlil qilish, tarmoqdagi asosiy muammolarni aniqlash;

meva-sabzavotchilik tarmog'ining rivojlanish omillari va to'siqlarini aniqlash, mavjud resurslardan samarali foydalanish va hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish;

xorijiy mamlakatlarda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va fermerlarni rag'batlantirish mexanizmlari bo'yicha ilg'or jihatlarni milliy iqtisodiyotga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash bo'yicha xulosalar tayyorlash;

meva-sabzavotchilik tarmog'ini davlat tomonidan tartibga solish hamda iqtisodiy rag'batlantirish yo'nalishlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;

Farg'ona viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish istiqbollarini prognoz qilish asosida umumlashgan xulosalar tayyorlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston meva-sabzavotchilik tarmog'i va ushbu tarmoqda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati tanlab olingan. Monografik tadqiqotlar Farg'ona viloyati misolida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning predmetini mintaqada meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar majmuasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqoti jarayonida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, mantiqiy va qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik guruhlash, ekspert baholash, grafik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

meva-sabzavotchilik tarmog'ida hududiy ixtisoslashuv darajasini baholashning eksport talabini hisobga oluvchi integral usuli takomillashtirilgan hamda ixtisoslashuvning "past", "o'rta", "yuqori", "juda chuqurlashgan" va "keng doirada ixtisoslashgan" darajalari bo'yicha baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

meva-sabzavotchilikda qiymat zanjiri ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy uzilishlarni qisqartirish maqsadida ishlab chiqarish-tayyorlash-qayta ishlash-eksport bosqichlarini o'zaro bog'lovchi uzoq muddatli shartnomaviy munosabatlar, yagona axborot almashinuvi va bozorga yo'naltirilgan ixtisoslashuv asosidagi integratsiya mexanizmi takomillashtirilgan;

meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli qisqa muddatli kreditlar hamda qayta ishlovchi va eksportyor korxonalar uchun "revolver" kreditlash tizimini joriy etish bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy takliflar asoslangan;

Farg‘ona viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ko‘p omilli ekonometrik modeli ishlab chiqilgan hamda 2030 yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlari hisoblangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jahon bozorlarida organik mahsulotlar ulushining ortishi, sotish oldi ishlov berish va qo‘shimcha xizmatlar rivoji, shuningdek, infratuzilmaviy omillarni hisobga olgan holda meva-sabzavot bozorini strategik rivojlantirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlarni barqaror ishlab chiqarish va taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirishga oid asosiy tendensiyalar aniqlanib, ular asosida amaliy takliflar ishlab chiqilgan;

tarmoq va hududiy dasturlarni ishlab chiqish jarayonida meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun gorizontaal yoki vertikal boshqaruv tamoyillariga asoslangan, vaqt va moddiy resurslarni tejashga qaratilgan korporativ tuzilmalarni shakllantirish taklifi asoslangan;

davlat tomonidan qishloq xo‘jaligini samarali tartibga solish, fermerlarni rag‘batlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali tarmoq barqarorligini ta‘minlash hamda agrar eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalarni milliy iqtisodiyot sharoitida qo‘llash yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan ilmiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, shuningdek, nazariy va amaliy ma‘lumotlarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda Xalqaro moliya institutlarining rasmiy manbalaridan olinganligi bilan ta‘minlanadi. Tahlillar statistik usullar asosida amalga oshirilgan bo‘lib, keltirilgan tahlillar, xulosalar, taklif va tavsiyalar amaliyotda sinab ko‘rilgan hamda olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan ularning ishonchliligi izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar meva-sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, agrosanoat integratsiyasi tizimini chuqurlashtirish hamda uning asosiy bo‘g‘inlarini prognozlashtirishning ilmiy-uslubiy apparatni boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotda olingan natijalar meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va iste‘molchilarga yetkazib berish tizimini takomillashtirish, shuningdek, tarmoqni klasterlash asosida barqaror rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ushbu natijalardan “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” va “Mintaqa iqtisodiyoti” fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirish, darsliklar hamda o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni tayyorlash jarayonlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Meva-sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar asosida:

meva-sabzavotchilik tarmog‘ida hududiy ixtisoslashuv darajasini eksport talabini hisobga olgan holda baholashning integral usuli hamda ixtisoslashuv darajalarini aniqlash mezonlari O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi

vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2026 yil 13 fevraldagi 06/126-2-10-05/19-son ma'lumotnomasi). Natijada hududlar kesimida meva-sabzavotchilik tarmog'ining "past" (0–0,2), "o'rta" (0,2–0,4), "yuqori" (0,4–0,6), "juda chuqurlashgan" (0,6–0,8) va "keng doirada ixtisoslashgan" (0,8–1,0) darajalari bo'yicha baholash ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

meva-sabzavotchilikda ishlab chiqarish–tayyorlash–qayta ishlash–eksport bosqichlari o'rtasidagi iqtisodiy uzilishlarni qisqartirishga qaratilgan uzoq muddatli shartnomaviy munosabatlar, yagona axborot almashinuvi va bozorga yo'naltirilgan ixtisoslashuv asosidagi integratsiya mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan qishloq xo'jaligi tizimi tashkilotlari faoliyatiga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2026 yil 13 fevraldagi 06/126-2-10-05/19-son ma'lumotnomasi). Natijada meva-sabzavotchilik tarmog'ida qo'shilgan qiymat zanjiri ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish va qiymat zanjiri samaradorligini oshirish imkoniyatlari asoslangan;

meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli qisqa muddatli kreditlar hamda qayta ishlovchi, saqlovchi va eksportyor sub'ektlar uchun "revolver" kreditlash tizimini joriy etish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan qishloq xo'jaligi tizimi tashkilotlari faoliyatiga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2026 yil 13 fevraldagi 06/126-2-10-05/19-son ma'lumotnomasi). Natijada meva-sabzavotchilik qiymat zanjirida moliyaviy ta'minlanganlik darajasini o'rtacha 20–30 foizga oshirish mumkinligi asoslangan;

Farg'ona viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ko'p omilli ekonometrik modeli hamda 2030 yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va vazirlik huzuridagi Agrar sohani iqtisodiy rivojlantirish va moliyalashtirish departamenti tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2026 yil 13 fevraldagi 06/126-2-10-05/19-son ma'lumotnomasi). Natijada Farg'ona viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 2030 yilga borib 1814,6 ming tonnadan 2057,3 ming tonnagacha, ya'ni 242,7 ming tonnaga yoki taxminan 13,4 foizga oshishi prognoz qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining ilmiy-amaliy natijalari 8 ta OAK e'tirofidagi ilmiy jurnallarda, shu jumladan, 3 ta xalqaro 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya natijalari bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti aniq belgilab berilgan. SHuningdek, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi yoritilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy etilishi asoslab berilgan, shuningdek, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda agrar ishlab chiqarish nazariyasidagi tizimli yondashuvlar, meva-sabzavotchilik tarmog'ini samarali joylashtirish va ixtisoslashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari hamda zamonaviy bozorning innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. SHuningdek, tarmoq raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy va tashkiliy omillar yoritilgan.

Ma'lumki, agrar ishlab chiqarishning nazariy asoslari qishloq xo'jaligida yer va tuproq unumdorligini asosiy ishlab chiqarish omili sifatida talqin etadi. SHu nuqtai nazardan, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari asosida tuproq unumdorligini saqlash va qayta tiklashda organik moddalar aylanishi, resurstejamkor texnologiyalar hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etishi izohlanadi. Ayniqsa, mineral o'g'itlardan me'yorsiz foydalanish tuproqning tabiiy xususiyatlarini susaytirishi, organik moddalar aylanishining buzilishi esa hosildorlik pasayishiga olib kelishiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. SHu bilan birga, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va hududiy mehnat taqsimotiga oid nazariy yondashuvlar asosida tabiiy-iqlim sharoiti, mehnat resurslari, transport-logistika infratuzilmasi hamda bozorlarga yaqinlik qishloq xo'jaligi samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslanadi. Qishloq xo'jaligini hududiy ixtisoslashtirish va ishlab chiqarishni maqbul joylashtirish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish, resurslardan samarali foydalanish, transport xarajatlarini qisqartirish hamda tarmoq raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, iqtisodiy samaradorlikni baholashda faqat hosildorlik yoki mahsulot ulushi ko'rsatkichlari bilan cheklanib qolish tarmoq rivojlanishining haqiqiy holatini to'liq aks ettirmaydi. Shu sababli tabiiy-iqlim sharoiti, infratuzilma imkoniyatlari, transport-logistika tizimi va bozor kon'yunkturasi kabi omillarni ham hisobga olish zarur hisoblanadi. Ayniqsa, meva-sabzavotchilik tarmog'ida hududlarning eksport salohiyati, tashqi bozor talabiga moslashuv darajasi va mahsulot raqobatbardoshligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan ixtisoslashuv darajasini eksport talabini inobatga olgan holda integral baholashga

asoslangan uslubiy yondashuvni qo'llash tarmoqning eksport imkoniyatlarini aniqlash va raqobatbardoshligini oshirishda maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shu bilan birga, mazkur yondashuv hududlarning eksport salohiyati va tashqi bozor talabiga moslashuv darajasini kompleks baholash imkonini beradi. Ayniqsa, eksport ulushi, tashqi bozordagi talab dinamikasi, eksport geografiyasi va eksport samaradorligi kabi ko'rsatkichlarni bir tizimda baholash orqali hududlarning raqobat ustunliklarini aniqlash, eksportbop mahsulot turlarini shakllantirish hamda ishlab chiqarishni maqbul joylashtirish uchun ilmiy asos yaratiladi.

1-jadval.

Hududiy ixtisoslashuv darajasini eksport talabini hisobga olgan holda integral baholash⁶

№	Indikatorlar	Mazmuni	Hisoblash usuli	Izoh
1	Eksport ulushi ko'effitsienti (Ke)	Ixtisoslashgan mahsulotning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi eksportga yo'naltirilgan qismini ko'rsatadi	$Ke = (Em / Ym) \times 100$	Em – eksport qilingan mahsulot hajmi; Ym – umumiy ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi. Bu ko'rsatkich tashqi bozorga chiqish darajasini baholaydi.
2	Eksport talab indeksi (ETI)	Tashqi bozorda ushbu mahsulotga bo'lgan talabning o'sish tendensiyasini ifodalaydi	$ETI = (Th / Tb) \times 100$	Th – joriy yildagi eksport hajmi, Tb – bazis yildagi eksport hajmi. Indeks 100 dan yuqori bo'lsa, talab ortib boryapti, deb baholanadi.
3	Eksport geografiyasi ko'effitsienti (Kg)	Mahsulot eksport qilinayotgan mamlakatlar soni va ular-ning ulushi bo'yicha diversifikatsiya darajasini ko'rsatadi	$Kg = (Mh / Mj) \times 100$	Mh – mahsulot eksport qilinayotgan mamlakatlar soni, Mj – jami eksport yo'nalishlar soni. Ko'rsatkich yuqori bo'lsa, bozor diversifikatsiyasi yuqori.
4	Eksport samaradorligi indeksi (Kse)	Eksport narxi, logistika xarajat-lari va valyuta tushumi asosida iqtisodiy foydali-likni baholaydi	$Kse = (Ne - Xl) / Ne \times 100$	Ne – eksport narxi, Xl – logistika va xizmat ko'rsatish xarajatlari. Indeks 20% dan yuqori bo'lsa, eksport samarali deb hisoblanadi.
5	Integral baholash indeksi (I)	Ko'rsatkichlar yig'indisi asosida hududiy ixtisoslashuv va eksport moslashuv daraja-sini aniqlaydi	$I = (Ke + ETI + Kg + Kse) / 4$	Integral indeks 60% dan yuqori bo'lsa – yuqori moslashgan ixtisoslashuv, 40–60% – o'rtacha, 40% dan past bo'lsa – past daraja hisoblanadi.

⁶ Mavjud uslubiy yondashuvlarni tadqiq etish asosida muallif ishlanmasi.

Bu esa meva-sabzavotchilik tarmog'ini hududlar kesimida samarali ixtisoslashtirish, eksport hajmini oshirish va qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Milliy iqtisodiyotda Farg‘ona viloyati meva-sabzavotchilik tarmog‘ining o‘rni va rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlanib, unda O‘zbekiston va Farg‘ona viloyatida meva-sabzavotchilik tarmog‘ining rivojlanish xususiyatlari, iqtisodiy ahamiyati, tarmoq rivojiga ta’sir etuvchi omillar hamda sohadagi mavjud muammolar tahlil qilingan.

Ma’lumki, so‘nggi yillarda mamlakatimiz agrar siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida meva-sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish, yer resurslaridan samarali foydalanish va eksportbop mahsulotlar yetishtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2020–2024 yillar mobaynida meva-sabzavot ekinlari maydonlari bosqichma-bosqich kengayib, yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmida barqaror o‘shish tendensiyasi kuzatildi. Ayniqsa, poliz va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishida yuqori o‘shish sur‘atlari saqlanib qolgan bo‘lsa, kartoshkachilik va uzumchilikda hosildorlikning pasayishi intensiv agrotexnologiyalarni keng joriy etish, suv tejovchi texnologiyalardan samarali foydalanish va tuproq unumdorligini saqlash choralarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Tahlillar shuni anglatadiki, tarmoqdagi o‘shish asosan ekstensiv omillar, ya’ni ekin maydonlarini kengaytirish hisobiga ta’minlangan bo‘lib, intensiv rivojlanish omillarining ulushi hali yetarli darajada emas.

Shu bilan birga, mulkchilik tarkibida fermer xo‘jaliklarining ulushi ortib borayotgani kuzatilib, ularning iqtisodiy va tashkiliy imkoniyatlari kengayib bormoqda. Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari esa ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda muhim ahamiyat saqlab qolmoqda. Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash darajasida ham ijobiy tendensiyalar kuzatilib, sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash ko‘rsatkichi so‘nggi yillarda o‘shish dinamikasini namoyon etdi. Mevalarni qayta ishlash darajasi nisbatan yuqori bo‘lsa-da, sohada chuqur qayta ishlash, saqlash va logistika infratuzilmasini takomillashtirish zarurligi saqlanib qolmoqda.

2-jadval.

O‘zbekiston respublikasida meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash darajasi, %⁷

Mahsulotlar	Yillar					
	2018	2019	2020	2022	2023	2024
Sabzavot mahsulotlari	4,04	4,13	4,32	6,70	6,20	6,14
Mevalar	18,07	19,06	19,97	18,9	17,5	18,9

Jadval ma’lumotlari ko‘rsatishicha, sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash sur‘atlari nisbatan tez o‘shib bormoqda. Bu qayta ishlash korxonalari faoliyatidagi jonlanish, ichki bozorda tayyor oziq-ovqat mahsulotlariga talabning ortishi hamda

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistic qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

eksportga yo'naltirilgan mahsulot turlarining ko'payishi bilan izohlanadi. SHu bilan birga, meva mahsulotlarini qayta ishlash darajasida ayrim yillarda pasayish kuzatilib, bu holat qayta ishlash quvvatlaridan to'liq foydalanilmayotgani, logistika xarajatlarining ortishi va xomashyo ta'minotidagi uzilishlar bilan bog'liq ekanligi namoyon bo'ldi.

Ma'lumki, meva-sabzavot mahsulotlari bozorida narxlar dinamikasi ko'p jihatdan mavsumiylik, tashqi bozor kon'yunkturasi va ichki talab yyetkazib berish muvozanati bilan bog'liq. 2024 yilda oziq-ovqat mahsulotlari bozorida nisbatan barqaror holat shakllangan bo'lsa-da, ayrim mahsulot turlari bo'yicha narx tebranishlari saqlanib qolmoqda. Bu holat qayta ishlash, saqlash va transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, mahsulotlarni yil davomida barqaror yyetkazib berish tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2020–2024 yillarda O'zbekiston meva-sabzavot mahsulotlari eksportida barqaror o'sish tendensiyasi saqlanib qoldi. Eksport tarkibida sabzavotlar va meva-rezavor mahsulotlari yetakchi o'rinni egallab, Rossiya, Pokiston, Xitoy va Qozog'iston asosiy tashqi bozorlar sifatida shakllandi. Bu milliy mahsulotlarning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligi ortib borayotganini anglatadi. SHu bilan birga, eksport geografiyasini kengaytirish, mahsulotlarni xalqaro standartlar asosida sertifikatlash va qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot jarayonida meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, intensiv bog'lar tashkil etish, yuqori hosildor va iqlim sharoitiga mos navlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etishi asoslandi. SHuningdek, seleksiya va urug'chilik tizimini modernizatsiya qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda mahalliy ilmiy salohiyatdan samarali foydalanish tarmoq raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, Farg'ona viloyatining tabiiy-iqlim sharoiti meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Viloyatda yoz faslining iliq va quyoshli kelishi, qishning nisbatan yumshoq o'tishi hamda suv resurslarining yetariligi meva va sabzavot ekinlaridan yuqori hosil olish imkonini beradi. SHu bilan birga, aholining ko'p yillik dehqonchilik tajribasi va hududiy ixtisoslashuvning shakllanganligi tarmoq rivojida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlillarga ko'ra, viloyatda meva va rezavorlar yetishtirish asosan Quvasoy shahri, Farg'ona va Quva tumanlarida jamlangan bo'lib, umumiy hosilning katta qismi mazkur hududlar hissasiga to'g'ri keladi. Sabzavot va poliz mahsulotlari bo'yicha ham hududlar kesimida muayyan tafovutlar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, Bog'dod, Qo'shtepa va Oltiariq tumanlarida yuqori natijalar qayd etilgan bo'lsa, ayrim hududlarda hosil hajmi nisbatan pastligicha qolmoqda. Uzumchilik tarmog'ida esa Oltiariq tumani yetakchilik qilib, viloyatda yuqori eksportbop salohiyat shakllangani kuzatildi.

Farg'ona viloyatida 1990–2024 yillar mobaynida meva-sabzavotchilik tarmog'i izchil o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Yalpi mahsulot hajmi 1776

ming tonnadan 2462 ming tonnagacha oshib, 1,4 martalik o'sish qayd etildi. Ochiq maydonlarda etishtirilgan mahsulot hajmi ustunlik qilgan bo'lsa, yopiq maydonlardagi o'sish asosan yil davomida barqaror mahsulot yetkazib berish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, qayta ishlash korxonalariga yetkazib berilgan mahsulot hajmi 1,4 marta, eksportga yo'naltirilgan mahsulot hajmi esa 2,2 marta oshgani tarmoqda qo'shilgan qiymat zanjirining rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Jadval ma'lumotlari Farg'ona viloyatida meva-sabzavotchilik tarmog'i bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, eksportga yo'naltirilgan mahsulot hajmining yuqori sur'atlarda o'sishi tarmoqning tashqi bozorlarga moslashib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, qayta ishlash, saqlash va qadoqlash infratuzilmasining cheklanganligi, sovuq zanjir tizimi imkoniyatlarining yetarli emasligi hamda mahalliy urug'chilik bazasining zaifligi tarmoqdagi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

3-jadval.

Farg'ona viloyatida meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirilishi va taqsimlanish dinamikasi⁸

Ko'rsatkichlar		Yillar						2024 yilda 1990 yilga nisbatan	
		1990		2010		2024		(+, -)	marta
		hajmi, ming tonna	jamiga nisbatan, %	hajmi, ming tonna	jamiga nisbatan, %	hajmi (ming tonna)	jamiga nisbatan, %		
YAlpi mahsulot		1 776	107	2 166	122	2 462	114	685	1,4
sh.j.	ochiq maydonda	1 199	108	1 473	123	1 723	117	524	1,4
	yopiq maydonda	577	105	693	120	739	107	161	1,3
sh.j.	asosiy	640	108	823	129	985	120	345	1,5
	oralik	622	107	715	115	788	110	166	1,3
	takroriy	515	109	628	122	689	110	174	1,3
Taqsimlanishi									
Urug'lik uchun		36	119	43	122	49	114	14	1,4
Ko'chat uchun		4	109	5	125	6	116	2	1,5
Qayta ishlash korxonalariga		533	118	650	122	739	114	206	1,4
Eksportga		265	101	445	168	590	132	325	2,2
Toshkent shahar va boshqa yarmarkalarga		266	114	325	122	369	114	103	1,4
Sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa muassasalarga		36	114	43	122	49	114	14	1,4
Ichki bozorga va iste'mol uchun (saqlash qo'shilgan holatda)		637	119	655	103	660	101	23	1,0

⁸ O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi ma'lumotlari

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur muammolarni bartaraf etish uchun qayta ishlash sanoatiga investitsiyalarni keng jalb qilish, energiya tejamkor issiqxonalarni rivojlantirish, agrologistika markazlari va zamonaviy saqlash infratuzilmasini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida mahalliy seleksiya va urug'chilik tizimini qo'llab-quvvatlash, eksportni moliyaviy rag'batlantirish hamda sertifikatlash jarayonlarini soddalashtirish tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Shundan kelib chiqqan holda, tadqiqot doirasida Farg'ona viloyatining Quva, Oltiariq, Bog'dod va Qo'shtepa tumanlarida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari, qayta ishlovchi korxonalar hamda agroklastlar o'rtasida so'rovnoma va intervyular o'tkazildi. So'rovnoma natijalari meva-sabzavotchilik tarmog'ida ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va eksport jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hali yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatdi. Ayniqsa, "Farg'ona Agroklastlar", "Beshariq meva-sabzavot eksporti" va "Quva Agro" klasterlari bilan hamkorlik qiluvchi xo'jaliklarda mahsulotni qayta ishlash va tashqi bozorga yo'naltirish imkoniyatlari mavjud bo'lsa-da, infratuzilma va kooperatsiya mexanizmlarining to'liq shakllanmaganligi tarmoq samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda.


So'rovnoma ishtirokchilarining asosiy qismi mahsulotni saqlash quvvatlari cheklanganligi tarmoq samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidlagan. Jumladan, respondentlarning 68,4 foizi mavsumiy davrda hosilning ma'lum qismi saqlash imkoniyatlari yetarli emasligi sababli ichki bozorda arzon narxlarda sotilishini qayd etgan. Bu holat, ayniqsa, tez buziluvchan meva va uzum mahsulotlarida yuqori yo'qotishlarga olib kelayotgani kuzatildi. Shuningdek, ishtirokchilarning 57,2 foizi eksportyorlar bilan hamkorlik asosan qisqa muddatli shartnomalar asosida amalga oshirilishi fermer xo'jaliklari uchun barqaror daromad manbaini shakllantirish imkoniyatini cheklayotganini bildirgan. So'rovnoma natijalariga ko'ra, fermer xo'jaliklarining 49,6 foizida zamonaviy saralash va qadoqlash liniyalari mavjud emasligi tashqi bozor talablariga mos mahsulot yetkazib berish imkoniyatlarini pasaytirmoqda. Shu bilan birga, respondentlarning 61,3 foizi logistika va sovuq zanjir tizimidagi muammolar mahsulot yo'qotilishining ortishiga sabab bo'layotganini ta'kidlagan.

Tadqiqot jarayonida "Quva Agro" va "Farg'ona Agroklastlar" faoliyati misolida qayta ishlash va eksport jarayonlarining nisbatan shakllanganligi kuzatilgan bo'lsa-da, kichik fermer xo'jaliklarining mazkur tizimga to'liq integratsiyalashmagani namoyon bo'ldi. Xususan, moliyaviy resurslar yetishmasligi, sertifikatlash xarajatlarining yuqoriligi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi ularning klaster tizimidagi ishtirokini susaytirmoqda. Shu bilan birga, so'rovnoma qatnashchilarining 54,8 foizi imtiyozli kreditlar va subsidiyalardan foydalanish imkoniyatlari cheklanganini, 46,2 foizi esa eksport jarayonlarida byurokratik to'siqlar saqlanib qolayotganini bildirgan. Fermerlarning aksariyati davlat

tomonidan agrologistika xizmatlari, sertifikatlash va eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish zarurligini ta'kidlagan.

Ma'lumki, meva-sabzavot mahsulotlari tez buziluvchan xususiyatga ega bo'lgani sababli saqlash, qadoqlash va tashish jarayonlari tarmoq raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy sovutkich omborlari, agrologistika markazlari va refrijeratorli transport xizmatlarini rivojlantirish orqali terimdan keyingi yo'qotishlarni qisqartirish hamda eksportbop mahsulotlarni tashqi bozorlarga tezkor yetkazib berish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, "agro-xab"lar negizida mahsulotni saralash, qadoqlash, saqlash va sertifikatlash xizmatlarini markazlashgan holda tashkil etish kichik fermer xo'jaliklarining eksport jarayonlarida ishtirokini kengaytirish imkonini beradi.

Shuningdek, klaster tizimida moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, eksport sug'urtasi, faktoring va forfeyting kabi moliyaviy instrumentlarni joriy etish tashqi bozorlar bilan ishlashda moliyaviy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bunda davlat-xususiy sheriklik asosida qayta ishlash quvvatlarini modernizatsiya qilish, mahalliy urug'chilik va seleksiya tizimini qo'llab-quvvatlash, energiya tejankor texnologiyalarni keng joriy etish tarmoqning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Meva-sabzavotchilik tarmog'ini barqaror rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlari tizimi⁹

Umuman olganda, so'rovnoma natijalari va amaliy tahlillar Farg'ona viloyatida meva-sabzavotchilik tarmog'ida qiymat zanjirini chuqurlashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va agroklastarlar o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. SHu munosabat bilan meva-

⁹ Muallif ishlanmasi.

sabzavotchilik sohasida quyidagi tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi (1-rasm).

Mazkur chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish orqali meva-sabzavotchilik tarmog'ida ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va eksport jarayonlari o'rtasidagi uzviy integratsiyani ta'minlash imkoniyati kengayadi. Natijada hududlarda mahsulot etishtirishni bozor talablari asosida maqbul joylashtirish, qo'shilgan qiymat zanjirini chuqurlashtirish va eksportbop mahsulotlar ulushini oshirish uchun tashkiliy-iqtisodiy asos shakllanadi. Shu bilan birga, raqamli axborot tizimlari va logistika infratuzilmasining rivojlanishi orqali mahsulot yo'qotishlarini qisqartirish, tashqi bozorlarga tezkor moslashish va fermer xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari kengayadi. Bu esa o'z navbatida Farg'ona viloyatida meva-sabzavotchilik tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashga xizmat qiladi.


Dissertatsiyaning **“Mintaqada meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari”** nomli uchinchi bobida Farg'ona viloyatida meva-sabzavotchilik tarmog'ini barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash usullarini takomillashtirish hamda xorijiy tajribalardan samarali foydalanish masalalari tadqiq etilgan. SHuningdek, hududda meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining istiqbol parametrlari ishlab chiqilib, tarmoqning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan takliflar shakllantirilgan.

Ma'lumki, rivojlangan mamlakatlar tajribasi qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tarmoq barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, melioratsiya tizimini rivojlantirish, sug'orish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va qishloq joylarda ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash yo'nalishlarida davlat investitsiyalarining yuqori ulushi saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va eksport faoliyatini rag'batlantirish qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish amaliyotida huquqiy, moliyaviy va iqtisodiy instrumentlar o'zaro uyg'un holda qo'llaniladi. Xususan, soliq imtiyozlari, subsidiyalar, investitsion dasturlar va imtiyozli kreditlar orqali fermer xo'jaliklari hamda agrobiznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash tarmoqda ishlab chiqarish faolligini oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, meva-sabzavotchilik tarmog'ida mavsumiylik va aylanma mablag'lar etishmasligi bilan bog'liq moliyaviy muammolarni yumshatishda davlat tomonidan moliyaviy-kredit mexanizmlarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, meva-sabzavotchilik sohasidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi taklif etildi (2-rasm). Taklif etilayotgan mexanizm avvalo fermer xo'jaliklarining aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qoplash, ishlab chiqarish jarayonidagi likvidlik uzilishlarini kamaytirish va mahsulot etishtirish barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan. SHu

bilan birga, qayta ishlash va eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarga uzoq muddatli investitsion resurslar ajratish orqali saqlash, qadoqlash va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish imkoniyatlari kengayadi.



2-rasm. Meva-sabzavot yetishtiruvchi fermer, dehqon xo'jaliklari va boshqa mahsulot yetishtiruvchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi¹⁰

Shuningdek, eksportyor korxonalar uchun faktoring, forfeyting va eksport sug'urtasi kabi moliyaviy instrumentlarni joriy etish tashqi bozorlar bilan hisob-kitob jarayonlaridagi moliyaviy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bunda davlat-xususiy sheriklik asosida agrologistika markazlari, zamonaviy sovutkich omborlari va qayta ishlash quvvatlarini tashkil etish orqali qo'shilgan qiymat zanjirini chuqurlashtirish imkoniyatlari kengayadi. Bu esa, o'z navbatida, meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash muddatini uzaytirish, terimdan keyingi yo'qotishlarni qisqartirish hamda tashqi bozorlarga standart talablariga mos mahsulot yetkazib berish imkoniyatlarini oshiradi. Ayniqsa, mahsulotni saralash, qadoqlash, saqlash va logistika jarayonlarining yagona tizim asosida tashkil etilishi qo'shilgan qiymat zanjirining barcha bosqichlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qayta ishlash quvvatlarining kengayishi xomashyoni chuqur qayta ishlash hisobiga eksportbop tayyor mahsulotlar ulushini oshirish, ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash va valyuta tushumlarini ko'paytirish imkonini beradi.

Shunday qilib, ushbu ikki bosqichli moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridagi mavsumiy moliyaviy bosim yengillashadi, qayta ishlovchi va eksportyor sub'ektlarning likvidlik imkoniyatlari kengayadi hamda iqtisodiy zanjirda aylanma mablag'lar harakatining barqarorligi ta'minlanadi. Bu esa agrobiznes sub'ektlarining ishlab chiqarish faolligini oshirish, mahsulot yetkazib berishdagi uzilishlarni kamaytirish va eksport salohiyatini kuchaytirish imkonini beradi. Ayniqsa, mahsulot etishtirishdan tortib uni qayta ishlash va tashqi bozorlarga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonlarda moliyaviy uzluksizlikning ta'minlanishi qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat zanjirining samarali ishlashini ta'minlaydi. Natijada fermer, qayta ishlovchi va eksportyor

¹⁰ Muallif ishlanmasi

sub'ektlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik mustahkamlanib, mahsulot harakatining barqaror tizimi shakllanadi.

Qayd etish joizki, amaldagi revolver kredit tizimi agrar sohada moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutayotgan bo'lsa-da, uning to'liq salohiyatidan foydalanishga to'sqinlik qilayotgan qator tashkiliy-iqtisodiy muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, revolver kreditlardan foydalanish doirasi asosan yirik qayta ishlovchi yoki eksportyor korxonalar bilan cheklanib, fermer xo'jaliklari, kichik kooperatsiyalar va servis markazlarining mazkur tizimdan foydalanish imkoniyatlari cheklanganligicha qolmoqda. Bu holat, avvalo, banklar tomonidan garov ta'minoti va moliyaviy hisobot shaffofligi bo'yicha yuqori talablar qo'yilayotgani bilan izohlanadi. Natijada kichik ishlab chiqaruvchilarning aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyoji to'liq qoplanmasdan, ishlab chiqarish jarayonida likvidlik uzilishlari yuzaga kelmoqda. Bu esa mahsulot etishtirish hajmi va sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ayrim hollarda fermer xo'jaliklarining bozordagi raqobat imkoniyatlarini pasaytirmoqda.

Shu bilan birga, kredit mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratning yetarli darajada emasligi ayrim hollarda ajratilgan mablag'larning ishlab chiqarish ehtiyojlaridan tashqari yo'nalishlarga sarflanishiga olib kelmoqda. Bu esa kredit resurslarining iqtisodiy samaradorligini pasaytirib, iqtisodiy zanjirdagi aylanma mablag' harakatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, fermer va qayta ishlovchi sub'ektlarning ma'lum qismi kredit dasturlari, ularning shartlari va imkoniyatlari haqida yetarlicha axborotga ega emasligi sababli revolver kredit tizimidan foydalanish darajasi pastligicha qolmoqda. Ayniqsa, kichik ishlab chiqaruvchilarda moliyaviy savodxonlik darajasining yetarli emasligi va raqamli axborot tizimlaridan foydalanish ko'nikmalarining pastligi mazkur mexanizmning samaradorligini cheklamoqda.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida, bizningcha, revolver kreditlardan foydalanish huquqini klaster a'zolari, kooperatsiyalar va servis markazlari darajasigacha kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. SHuningdek, "jamoaviy kafolat" tizimini joriy etish orqali bir nechta fermer xo'jaliklarining umumiy javobgarlik asosida kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Bu orqali kichik ishlab chiqaruvchilarning moliyalashtirish jarayonidagi ishtiroki faollashadi hamda ularning aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyoji qisqaradi. Natijada agrobiznes sub'ektlari o'rtasidagi iqtisodiy kooperatsiya kuchayib, qishloq xo'jaligida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi.

Bizningcha, "agro-treker" asosida elektron monitoring tizimini joriy etish ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tizim orqali ajratilgan mablag'larning faqat mahsulot aylanmasi bilan bog'liq maqsadlarga, jumladan, xomashyo, mineral o'g'it, yoqilg'i yoki agrotexnika xizmatlariga sarflanishi ta'minlanadi. SHu bilan birga, klaster va fermerlar o'rtasidagi shartnomalarda mablag'lardan maqsadli foydalanish bo'yicha aniq majburiyatlarni belgilash iqtisodiy intizomni kuchaytirish imkonini beradi. Bu orqali kredit mablag'larining shaffof harakati ta'minlanib, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish darajasi oshadi.

Shuningdek, hududiy axborot markazlari orqali fermer va agrobiznes sub'ektlariga kredit dasturlari, bozor narxlari, eksport talablari va davlat qo'llab-quvvatlash choralari haqida muntazam yangilanib boruvchi axborotlarni etkazish lozim. Bu orqali kichik ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy savodxonligi oshadi, kredit resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari kengayadi hamda bozor kon'yunkturasiga tezkor moslashish ta'minlanadi. Ayniqsa, raqamli axborot platformalari orqali mahsulot narxlari, eksport bozorlari va logistika xizmatlari haqidagi ma'lumotlarni tezkor olish imkoniyati fermer xo'jaliklarining iqtisodiy qaror qabul qilish samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, revolver kredit tizimining samarali faoliyat yuritishi uning institutsional qamrovini kengaytirish, raqamli nazorat mexanizmlarini joriy etish va axborot shaffofligini ta'minlash bilan bevosita bog'liq. Shu nuqtai nazardan, revolver kredit tizimi qishloq xo'jaligida nafaqat moliyalashtirish vositasi, balki barqaror aylanma kapital shakllantirish, agrobiznes sub'ektlari o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish va eksportga yo'naltirilgan qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirishning muhim iqtisodiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy modellashtirish uzoq va o'rta muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, qabul qilingan iqtisodiy qarorlarning amaliy samaradorligini baholash hamda tarmoq faoliyatini prognozlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishini optimallashtirish jarayonida asosiy endogen va ekzogen omillarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish orqali rejalashtirish va boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Farg'ona viloyati misolida olib borilgan tadqiqot jarayonida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi natijaviy omil sifatida qabul qilindi. Unga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida qishloq xo'jaligi tarmog'ida band bo'lgan aholi soni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmida kichik biznes ulushining o'zgarishi, eksport qilingan mahsulot qiymati hamda kichik biznes sub'ektlarining eksportdagi ulushi tanlab olindi. Mazkur ko'rsatkichlar asosida Farg'ona viloyatining 2010–2024 yillar bo'yicha statistik ma'lumotlari negizida ko'p omilli ekonometrik model shakllantirildi.

Modellashtirish jarayonida regression tahlil usullari hamda EViews 10 dasturi imkoniyatlaridan foydalanilib, natijaviy omil bilan ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi funksional bog'liqlik darajalari aniqlandi. Tahlil natijalari meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga eksport ko'rsatkichlari, kichik biznes faolligi va qishloq xo'jaligida bandlik darajasi sezilarli ta'sir ko'rsatishini namoyon qildi. SHuningdek, chiziqli logarifmik yondashuv asosida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining chiziqsiz ko'rinishdagi ekonometrik modeli shakllantirildi:

$$Y = \frac{x_2^{0.0283} \cdot x_3^{0.6704} \cdot x_4^{0.1422} \cdot e^{3.587}}{x_1^{0.0548}}$$

Ushbu model asosida 2025–2030 yillar uchun meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi hamda unga ta'sir etuvchi asosiy omillarning prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Prognoz natijalariga ko'ra, qishloq xo'jaligida kichik biznes sub'ektlari faolligining kengayishi, eksport hajmining o'sishi va tarmoqda bandlik darajasining barqaror saqlanishi meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining izchil o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda. SHu bilan birga, agrologistika infratuzilmasining rivojlanishi, qayta ishlash quvvatlarining kengayishi va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishning qo'llab-quvvatlanishi tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Ayniqsa, prognoz hisob-kitoblari natijalari eksport qilingan mahsulot qiymati va kichik biznesning eksportdagi ulushi meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga yuqori ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Bu esa hududda eksportga yo'naltirilgan agrobiznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, qayta ishlash va saqlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda tashqi bozorlarga integratsiyalashuv darajasini oshirish maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan, prognoz natijalari Farg'ona viloyatida meva-sabzavotchilik tarmog'ini barqaror rivojlantirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni belgilashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi (4-jadval).

4-jadval.

Farg'ona viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarining trend modellari hamda 2025-2030-yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari¹¹

Ko'rsatkichlar va ularning omilli modellari	Prognoz ko'rsatkichlari				
	2025	2026	2027	2028	2030
Meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishi hajmi, ming tn $Y = \frac{X_2^{0.0283} \cdot X_3^{0.6704} \cdot X_4^{0.1422} \cdot e^{3.587}}{X_1^{0.0548}}$	1814,6	1877,5	1939,0	1999,0	2057,3
Qishloq xo'jaligi tarmog'ida bandlar soni, ming kishi $x_1 = 10,62 \cdot t + 3354,5$	3524,4	3535,0	3545,7	3556,3	3566,9
Qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmida kichik biznes ulushining o'zgarishi, % $x_2 = 33,69 - 1,21 \cdot t$	14,3	13,1	11,9	10,7	9,5
Farg'ona viloyatida eksport qilingan meva-sabzavot mahsulotlari qiymati, mln. AQSH dollari $x_3 = 10,97 \cdot t + 71,36$	246,9	257,9	268,8	279,8	290,8
Farg'ona viloyatida kichik biznesning eksportdagi ulushi, % $x_4 = 3,9 \cdot t + 8,84$	71,2	75,1	79,0	82,9	86,8

¹¹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ekonometrik modelning sifat va ishonchligi to'rt mezon asosida baholandi. Jumladan, korrelyasiya va determinatsiya koeffitsientlari, Fisher va Student mezonlari hamda Darbin-Uotson testi orqali modelning statistik ahamiyati tekshirildi. Hisob-kitob natijalari modelning yuqori darajada ishonchli ekanligini va uni amaliyotda qo'llash imkoniyati mavjudligini ko'rsatdi (korrelyasiya koeffitsienti $R=0,9835$; determinatsiya koeffitsienti $R^2=0,9763$; $DW=1,83$). SHuningdek, haqiqiy va hisoblangan qiymatlar o'rtasidagi farqning minimal darajada ekanligi prognoz natijalarining aniqligi va barqarorligini tasdiqlaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Farg'ona viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida qishloq xo'jaligida bandlik darajasi, kichik biznes sub'ektlari faolligi, eksport qilingan mahsulot qiymati hamda kichik biznesning eksportdagi ulushi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, eksport ko'rsatkichlari va kichik biznes faolligining o'sishi meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortishiga kuchli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqilgan trend va ekonometrik modellar hududiy meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishning maqsadli ssenariylarini shakllantirish, resurslar taqsimotini optimallashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini uzoq muddatli rejalashtirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. SHu bilan birga, prognoz natijalari asosida eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish va agrologistika infratuzilmasini rivojlantirish tarmoqning barqaror o'sishini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligi namoyon bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, hududiy meva-sabzavotchilik sohasini ko'p omilli ekonometrik modellashtirish va prognoz ko'rsatkichlar asosida maqsadli ssenariylar ishlab chiqish orqali ishlab chiqarish hajmining samarali va barqaror o'sishini ta'minlash imkoniyati mavjud. Prognoz natijalari tarmoqda resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini maqbul tashkil etish va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ulushini oshirish uchun muhim amaliy asos vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv asosida sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, qayta ishlash va agrologistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda tashqi bozor talablariga mos ishlab chiqarishni rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi. Natijada Farg'ona viloyatida meva-sabzavotchilik tarmog'ining raqobatbardoshligi va eksport salohiyati ortib, hudud iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash uchun mustahkam tashkiliy-iqtisodiy asos shakllanadi.

XULOSA

Meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlariga bag'ishlangan tadqiqotimiz jarayonida quyidagi xulosalar olindi:

1. Meva-sabzavotlar bozori ishlab chiqaruvchilar, qayta ishlovchi korxonalar, vositachilar, iste'molchilar va infratuzilma sub'ektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida shakllanib, oziq-ovqat resurslarini ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarining o'zaro muvofiqlashuvini ta'minlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi mahsulot harakati tezligi va eksport samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

2. Qishloq xo'jaligida ixtisoslashuv va konsentratsiya darajasini baholash bo'yicha mavjud yondashuvlar tahlili asosida hosildorlik va iqtisodiy ulush ko'rsatkichlari bilan bir qatorda tabiiy-iqlim sharoiti, suv ta'minoti, logistika infratuzilmasi, mahalliy kooperatsiya va eksport talabini hisobga oluvchi integral baholash usuli taklif etildi. Mazkur yondashuv hududlarning agrosanoat qiymat zanjiridagi ishtiroki va iqtisodiy salohiyatini kompleks baholash imkonini beradi.

3. O'zbekistonda 2018–2024 yillar davomida meva-sabzavotchilik tarmog'ida barqaror o'sish kuzatilib, sabzavot mahsulotlari hajmi 4,04 foizdan 6,14 foizga, meva mahsulotlari hajmi esa 18,9 foizdan 23,5 foizga oshgan. SHu bilan birga, qayta ishlash salohiyati 2020 yildagi 4,32 foizdan 2024 yilda 6,14 foizga yetgan. Biroq intensiv texnologiyalardan foydalanish darajasi pastligicha qolib, yuqori sifatli urug'lar ulushi ekin maydonlarining atigi 35–40 foizini tashkil etmoqda. 2023 yilda kuzatilgan suv tanqisligi va yuqori haroratlar hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatib, ayrim hududlarda mahsulot sifatining pasayishiga sabab bo'lgan..

4. Farg'ona viloyatida 1990–2023 yillar davomida meva-sabzavotchilik tarmog'ida barqaror o'sish tendensiyasi saqlanib, uzumchilikda hosildorlik 270,8 s/ga dan 279,2 s/gagacha oshgan va bu respublika o'rtacha ko'rsatkichidan qariyb ikki barobar yuqori bo'lgan. SHu bilan birga, eksport va qayta ishlash hajmlarining ortishi qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytirgan. Biroq ayrim tumanlarda qayta ishlash quvvatlari yetarli emasligi, sovuq zanjir infratuzilmasining rivojlanmaganligi va energiya tejamkor issiqxonalar ulushining pastligi tarmoq raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

5. Tahlillar meva-sabzavotchilik tarmog'idagi asosiy muammolardan biri logistika va eksport infratuzilmasining cheklanganligi ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, so'rovnoma ishtirokchilarining 68,4 foizi saqlash quvvatlari yetarli emasligi sababli mahsulotning ma'lum qismi ichki bozorda arzon narxlarda sotilishini qayd etgan. Respondentlarning 61,3 foizi logistika va sovuq zanjir tizimidagi muammolar mahsulot yo'qotilishining ortishiga sabab bo'layotganini ta'kidlagan. SHuningdek, 49,6 foiz fermer xo'jaliklarida zamonaviy saralash va qadoqlash liniyalari mavjud emasligi tashqi bozor talablariga mos mahsulot yetkazib berish imkoniyatlarini cheklamoqda.

6. Tarmoqda klaster tizimini takomillashtirish orqali fermer xo'jaliklari, qayta ishlovchi korxonalar va eksportyor sub'ektlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish imkoniyati mavjudligi asoslandi. Xususan, "Farg'ona Agroklaster", "Beshariq meva-sabzavot eksporti" va "Quva Agro" misolida qayta ishlash va

eksport jarayonlarining shakllanayotgani kuzatilgan bo'lsa-da, fermerlar bilan uzoq muddatli kooperatsiya munosabatlari hali to'liq shakllanmagan. Shu munosabat bilan logistika, sertifikatlash va marketing jarayonlarini markazlashtirish asosida agroklastlar faoliyatini kuchaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

7. Xorijiy tajriba tahlillari qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va infratuzilmaviy dasturlar orqali amalga oshirilishi tarmoq barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Ayniqsa, davlat-xususiy sheriklik asosida agrologistika markazlari va qayta ishlash quvvatlarini tashkil etish mahsulot yo'qotishlarini 20–30 foizgacha qisqartirish imkonini berishi aniqlandi.

8. Meva-sabzavotchilik tarmog'ida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida revolver kredit tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, fermer va dehqon xo'jaliklariga hosil qiymatining 50 foizigacha bo'lgan qismi uchun bir yillik, 6 oylik imtiyozli davrga ega kreditlar ajratish taklif etildi. Shuningdek, "jamoaviy kafolat" tizimi va "agro-treker" elektron monitoring mexanizmini joriy etish orqali kredit mablag'laridan samarali foydalanish va kichik ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish mumkinligi asoslandi.

9. Ko'p omilli ekonometrik tahlil natijalari Farg'ona viloyatida meva-sabzavotchilik tarmog'ining rivojlanishi qishloq xo'jaligida bandlik darajasi, kichik biznes sub'ektlari faolligi va eksport ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Tuzilgan ekonometrik model yuqori ishonchlilik darajasiga ega bo'lib ($R=0,9835$; $R^2=0,9763$; $DW=1,83$), prognoz natijalariga ko'ra 2030 yilda meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 1,5–2,0 foizga, eksport ko'rsatkichlarining esa 3 foizga o'sishi kutilmoqda. Bu esa tarmoqni ilmiy asosda rejalashtirish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun muhim amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL № DSc.08/2025.27.12.I.07.02 FOR AWARDING OF
THE SCIENTIFIC DEGREES AT SAMARKAND AGROINNOVATIONS
AND RESEARCH UNIVERSITY**

**NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER
MIRZO ULUGBEK**

ISRAILOVA XIKOYAT MUSAKULOVNA

**PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF FRUIT AND
VEGETABLE PRODUCTION IN THE REGION
(IN CASE OF FERGANA REGION)**

08.00.04 – Agricultural economics

**ABSTRACT
of the Dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences**

Samarkand – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

**Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD)
po ekonomicheskim naukam**

Israilova Hikoyat Musakulovna Mintaqada meva-sabzavotchilikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari (Farg'ona viloyati misolida).	3
Israilova Xikoyat Musakulovna Priority directions for the development of fruit and vegetable production in the region (in case of Fergana region)	26
Исраилова Хикоят Мусакуловна Приоритетные направления развития плодОВООВОЩЕВОДСТВА в регионе (на примере Ферганской области).....	49
E'lon qilingan ishlar ro'yxati List of published works Список опубликованных работ.....	60

The theme of the doctoral dissertation (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission under Ministry of higher education, science and innovations of the Republic of Uzbekistan under the number B2024.3.PhD/Iqt4342.

The dissertation is prepared at National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English and Russian (Summary)) on the website of the Scientific Council and Information educational portal “ZiyoNET” (www.ziynet.uz).

Scientific supervisor:

Egamberdiyev Komron Farmonkul ugli

Doctor of economic sciences, docent

Official opponents:

Umarov Sukhrob Rustamovich

Doctor of economic sciences, professor

Sultanov Bakhodir Fayzullaevich

Doctor of economic sciences, associate researcher

Leading organization:

Andijan institute of agriculture and agrotechnologies

The defense of the dissertation will be held on “_____”, 2026 at _____ in the Session of the Scientific Council DSc.08/2025.27.12.I.07.02 at Samarkand Agroinnovations and Research University. Address: 141001, Samarkand Region, Akdarya District, Dahbet Settlement, A.Temur Street, 7. Phone: (998 66) 492-81-16; Email: info@samaguni.uz.

The doctoral dissertation is available at the Information Resource Center of Samarkand Agroinnovations and Research University (registered under № _____). Address: 141001, Samarkand Region, Akdarya District, Dahbet Settlement, A.Temur Street, 7. Phone: (998 66) 492-81-16; Email: info@samaguni.uz.

The abstract of the dissertation is distributed on “_____”, 2026
(Registry protocol № _____ of “_____”, 2026).

Sh.T.Hasanov

Chairman of the Scientific Council for
awarding scientific degrees, DSc,
Professor

Sh.B.Babaxolov

Secretary of the Scientific Council for
awarding scientific degrees, PhD,
Associate professor

O. Murtazayev

Chairman of the Scientific Seminar
under the Scientific Council for
awarding scientific degrees, DSc,
Professor

INTRODUCTION (Doctor of Philosophy (PhD) dissertation abstract)

Relevance and actuality of the dissertation theme. In the world economy, agriculture, particularly the fruit and vegetable sector, is gaining strategic importance in providing the population with high-quality food products and supplying the processing industry with raw materials. According to the Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO), "... over the past 20 years, global demand for fruit and vegetable products has been increasing by an average of 5–7 percent annually"¹². However, global climate change, environmental problems, and geopolitical crises are negatively affecting the sustainable development of the sector. In this regard, developed countries are widely introducing innovative technologies, water-saving systems, clustering mechanisms, and government measures aimed at regulating market mechanisms. As a result, the fruit and vegetable sector is becoming one of the priority areas that not only ensures food security but also supports the sustainable growth of the national economy.

Major scientific centers and research institutions around the world are conducting comprehensive studies on the sustainable provision of the population with fruit and vegetable products. In particular, the agricultural development strategies of many countries attach special priority to scientific research aimed at introducing new mechanisms and approaches for the accelerated development of fruit and vegetable production and viticulture, diversifying agricultural production, and ensuring the effective use of innovative and resource-saving technologies. At the same time, improving breeding and seed production activities aimed at developing environmentally safe, climate-resilient, and high-yielding varieties; developing systems for the procurement and processing of agricultural products; ensuring the sector's access to financial resources; and elaborating approaches aimed at diversifying export directions are regarded as important areas of scientific research.

In our country, consistent reforms have been implemented to ensure the sustainable development of the fruit and vegetable sector. As a result, the production capacity and export potential of the sector have expanded significantly. However, despite the measures being implemented in this area, the insufficient formation of effective market mechanisms for the development of fruit and vegetable production and viticulture, as well as the incomplete use of scientific approaches, hinder the full realization of the sector's potential. According to estimates, "... the income obtained from one hectare of land is 7 times higher for grapes, 6 times higher for cherries, and 5 times higher for walnuts compared to raw cotton"¹³. In this regard, special priority is being given to tasks aimed at "further

¹²https://www.undp.org/content/dam/uzbekistan/docs/Publications/economicgovernance/Improving_Productive_and_Export_Potential/un_uzb_Improving_Productive_%20and_Export%20Potential.pdf

¹³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги ПФ-5853-сонли "Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020–2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида"ги Фармони. https://lex.uz/docs/4567334?utm_source=chatgpt.com

improving the agribusiness environment, developing the value chain, reducing state participation in the sector, increasing investment attractiveness, ensuring the efficient use of land and water resources, and introducing international standards into agriculture and the food industry”¹⁴.

This dissertation research contributes, to a certain extent, to the implementation of the tasks set out in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5009 dated February 26, 2021, “On Measures to Implement in 2021 the Tasks Defined in the Strategy for the Development of Agriculture of the Republic of Uzbekistan for 2020–2030”; No. PF-36 dated February 16, 2024, “On Additional Measures to Ensure Food Security in the Republic”; Resolutions No. PQ-4239 dated March 14, 2019, “On Measures to Develop Agricultural Cooperation in the Fruit and Vegetable Sector”; No. PQ-52 dated December 15, 2021, “On Measures for State Support of the Fruit and Vegetable Sector and Further Development of the Cluster and Cooperation System in the Sector”; No. PQ-20 dated November 23, 2023, “On Measures to Develop Family Entrepreneurship in Fruit and Vegetable Production and Viticulture and to Increase the Share of Dekhkan Farms in Agricultural Production”; as well as other regulatory legal acts related to this field.

Compliance of the Research with the Priority Areas of Science and Technology Development of the Republic. The dissertation has been carried out in accordance with Priority Area I of the development of science and technology of the Republic: “Spiritual, moral, and cultural development of a democratic and legal society, and formation of an innovative economy”.

The extent of the study of the research problem. Issues related to crop allocation, specialization of production, development of cooperation relations, export competitiveness, and assessment of regional specialization in agriculture, including the fruit and vegetable sector, have been thoroughly studied in the scientific works of foreign scholars such as S.A. Kondratenko, E.E. Matveeva, W. Kupsik, K. Pawlak, M. Svatošová, S. Brakman, A. De Benedictis¹⁵, and other researchers. Their studies pay particular attention to foreign trade in fruit and vegetable products, agricultural market infrastructure, export efficiency, regional specialization, and the methodology for assessing agricultural production.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF–5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/4567334?utm_source=chatgpt.com

¹⁵ Кондратенко С.А. Устойчивое развитие регионального агропродовольственного комплекса: теория, методология, практика / С.А.Кондратенко. – Минск, 2019. – 286 с.; Е.Е.Матвеева. Система показателей, характеризующих специализацию сельскохозяйственного производства. Экономика управление. 2012. №2, 4-7 стр.; Kupsik W., Pawlak K. Competitive Position of EU Candidate Countries and Eastern Partnership Countries in Trading Fruit and Vegetables in the Single European Market // Agriculture. – 2024. – Vol. 14. – No. 11. – Article 1997. DOI:10.3390/agriculture14111997; Svatošová M., Boháčková I., Hrabánková M. Regional Agricultural Specialization and Competitiveness under Sustainable Development Conditions // Sustainability. – 2022. – Vol. 14. – No. 9. – Article 5241. DOI:10.3390/su14095241; Brakman S., Garretsen H., van Marrewijk C. Regional Specialization and Concentration in Agricultural Trade: Measurement and Policy Implications // Journal of Regional Science. – 2021. – Vol. 61. – No. 5. – P. 987–1008. [Wiley Online Library](#); De Benedictis L., Tamberi M., Vicarelli C. Specialization Patterns in Agricultural Production and Export Performance: New Empirical Evidence // Applied Economic Perspectives and Policy. – 2023. – Vol. 45. – No. 2. – P. 756–774. [Oxford Academic Journal](#).

In our country, due to the strategic importance of the fruit and vegetable sector in the national economy and its significant role in ensuring food security, the scope of scientific research in this area has been expanding in recent years. In particular, economists such as S.T. Iskandarov, Sh.M. Murodov, S.K. Eshmatov, M.U. Achilov, and Kh.A. Pardayev¹⁶ conducted scientific research devoted to improving the efficiency of product production, modernizing the sector, developing integration processes within the value chain, improving the system of processing and marketing fruit and vegetable products, and developing cooperation relations.

At the same time, special scientific studies devoted to the development of the fruit and vegetable sector across regions of the country, assessment of the level of regional specialization, and improvement of organizational and economic mechanisms for the sustainable development of the sector while taking into account agro-climatic potential and market conditions have not been conducted sufficiently. This determines the necessity of carrying out scientific research aimed at deepening the value chain in the fruit and vegetable sector, strengthening integration processes among economic entities, and increasing the competitiveness and export potential of the sector.

Relationship of the Research with the Research Plans of the Higher Education Institution Where the Dissertation Was Completed. The dissertation research was carried out in accordance with the research plans of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek within the framework of the scientific and practical grant F-OT-F1-101 entitled “Methodological Approaches to Increasing the Competitiveness of Regional Economies under the Conditions of Globalization” for 2017–2021.

The aim of the research is to develop scientific proposals and practical recommendations aimed at the development of the fruit and vegetable sector in the regions of the Republic of Uzbekistan.

Research objectives:

to systematically analyze the scientific and theoretical foundations of agricultural production and to scientifically substantiate the economic nature of the fruit and vegetable sector and its role in the national economy;

to prepare proposals for improving the methodological approach to assess the level of specialization in the fruit and vegetable sector based on an analysis of existing methodological approaches;

to develop general conclusions by identifying the main trends in the global fruit and vegetable market based on an analysis of the strategic tasks of the modern fruit and vegetable market and the factors of innovative development;

¹⁶ С.Т.Искандаров. Глобал иқлим ўзгариши шароитида сабзавотчиликни ривожлантиришнинг илмий-услубий асосларини такомиллаштириш: дисс. ... авт. и.ф.д. 2024 й.; Ш.М.Муродов Мева-сабзавот маҳсулотларини сотиш соҳасида кооперация муносабатларини шакллантириш: дисс. ... авт. и.ф.н. – Т., 2020.; С.К.Эшматов Мева-сабзавотчилик тармоғида қўшилган қиймат занжирини ривожлантириш йўналишлари: дисс. ... авт. и.ф.н. – Т., 2021.; М.У.Ачилов. Мева-сабзавотчилик тармоғини модернизациялашнинг ташкилий-иқтисодий асосларини такомиллаштириш: дисс. ... авт. и.ф.н. – Т., 2022.; Х.А.Пардаев. Pomidor ishlab chiqarish zanjiri subyektlari oʻrtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida): дисс. ... авт. и.ф.н. – Т., 2023.

to identify existing problems based on an analysis of development trends in the fruit and vegetable sector in Uzbekistan, particularly the dynamics of production, processing, and export indicators across regions;

to analyze the development characteristics and problems of the fruit and vegetable sector using Fergana region as an example, and to identify the main problems in the sector;

to identify the factors and barriers affecting the development of the fruit and vegetable sector, and to develop practical proposals for the efficient use of available resources and the deepening of regional specialization;

to prepare conclusions on the possibilities of adapting advanced aspects of foreign experience in state regulation of agriculture and mechanisms for incentivizing farmers to the national economy;

to develop scientifically grounded proposals for improving the directions of state regulation and economic incentives in the fruit and vegetable sector;

to prepare generalized conclusions based on forecasting the prospects for fruit and vegetable production in Fergana region.

Object of the research is the fruit and vegetable sector of Uzbekistan and the activities of economic entities operating in this sector. Monographic studies were conducted using Fergana region as an example.

Subject of the research is the complex of organizational and economic relations that arise in the process of developing the fruit and vegetable sector in the region.

Research methods. In the course of the dissertation research, the methods of scientific abstraction, induction and deduction, logical and comparative analysis, a systematic approach, statistical grouping, expert evaluation, and graphical methods were used.

Scientific novelty of the research is as follows:

